

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI YURISDIKSIYA INSTITUTINING RIVOJLANISHI VA UNING HAKAMLIK SUDLARIDA NAMOYON BO`LISHI

Hatamjonova Xadisaxon Saloxiddin qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Advokatura va advokatlik faoliyati yo`nalishi magistranti

Annotatsiya: *O`zbekiston Respublikasida yurisdiksiya institutining rivojlanish va uning Hakamlik sudlarida namoyon bo`lishi borasida ma`lumotlar o`rganilgan, izlanishlar qilingan. Hakamlik sudlarini rivojlantirish bo`yicha xorijiy tajriba o`rganilib, tahlil qilingan. Hakamlik sudlarida yurisdiksiya institutining rivojlantirish bo`yicha bir nechta takliflar berilgan*

Kalit so`zlar: *yurisdiksiya, yurisdiksiya institute, nizolarni muqobil hal qilish, hakamlik sudi, arbitraj sudi, davlat sudlari.*

РАЗВИТИЕ ИНСТИТУТА ЮРИСДИКЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ЕГО ПРОЯВЛЕНИЕ В ТРЕТЕЙСКОМ СУДЕ

Ҳатамжонова Хадисахон Салоҳиддин қизи

Ташкентский государственный юридический университет

Магистр адвокатуры

Аннотация: *Изучена и исследована информация о развитии юрисдикционного института в Республике Узбекистан и его проявлении в третейском суде. Изучен и проанализирован зарубежный опыт развития третейских судов. Высказано несколько предложений по развитию института подсудности в третейских судах.*

Ключевые слова: *подсудность, институт подсудности, альтернативное разрешение споров, третейский суд, арбитражный суд, государственные суды.*

THE DEVELOPMENT OF THE JURISDICTIONAL INSTITUTION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND ITS MANIFESTATION IN THE ARBITRATION COURT

Khatamjonova Khadisakhon Salokhiddin kizi

Tashkent State Law University

Master of Advocacy

7

Annotation: *Information on the development of the jurisdictional institution in the Republic of Uzbekistan and its manifestation in the Arbitration Courts has been studied and researched. Foreign experience in the development of arbitration courts was studied and*

analyzed. Several proposals have been made for the development of the institution of jurisdiction in arbitration courts

Key words: *jurisdiction, institution of jurisdiction, alternative dispute resolution, arbitration court, state courts.*

Fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiquvchi nizolarni, shu jumladan, tadbirkorlik subyektlari o'rtasida vujudga keluvchi iqtisodiy nizolarini hakamlik sudlari tomonidan ham hal etilayotgani mamlakatimizda bozor munosabatlarini yanada chuqurlashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 17-iyundagi "Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori nizolarni sudgacha ko'rib chiqishning yagona tizimini yaratish, mediatsiya, hakamlik sudlari hamda xalqaro arbitrajlarining rolini tubdan oshirish, ularning fuqarolar hamda tadbirkorlarning ishonchiga sazovor bo'ladigan institutlarga aylanishida muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi³⁰.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan yangi Taraqqiyot strategiyasining 15-maqsadidan kelib chiqib, nizolarni hal etishning muqobil usullaridan keng foydalanish uchun zarur tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratish, yarashuv institutini qo'llash doirasini yanada kengaytirish, hakamlik sudlarini fuqarolar hamda tadbirkorlarning ishonchiga sazovor bo'ladigan nizolarni hal etuvchi samarali muqobil institutga aylantirish hamda bu yo'nalishda huquqni qo'llash amaliyotini yanada takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Xususan, O'zbekistonda "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi (2006), "Mediatsiya to'g'risida"gi (2018), "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi (2021) Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika iqtisodiyotiga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2019), "Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2020) Qarorlari va "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi (2022) Farmoni bevosita investitsiyaviy muhitni yaxshilash borasida tashqi savdo faoliyatini samarali tartibga solish, iqtisodiy va fuqarolik nizolarni hal qilishning muqobil mexanizmlarini rivojlantirish hamda subyektlar huquqlarini kafolatlash sohasida tizimli ishlar amalga oshirilayotganligining yaqqol namunasidir.

Fuqarolik va iqtisodiy huquqiy munosabatlardan kelib chiquvchi nizolarni hakamlik sudlari tomonidan hal etilishi davomida bu mamlakatimizda fuqarolarning huquqlari o'zlari xohlagan yo'sinda hal etilishi, bozor munosabatlarini yanada chuqurlashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

³⁰ Boboqulovna I. F., Orif o'g'li R.B. Mediatsiya – oilaviy nizolarni hal etishning muqobil usuli sifatida//Scientific aspects and trends in the field of scientific research. – 2022. – T. 1. – №. 4. – B. 80-85

Mazkur hakamlik sudlari o'z faoliyatlarini xolislik, qonuniylik asosida mustaqil ravishda hakamlik muhokamasi taraflarining tortishuvi va teng huquqligini ta'minlagan holda hamda tadbirkorlarga keng imkoniyatlar yaratish va ularga yordam berish maqsadida amalga oshirmoqdalar.

Statistik ma'lumotlarga asosan, respublikamizda hakamlik sudlarining hal qiluv qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqalari berishga doir ishlar vakolatli sudlar tomonidan 2020-yilda 1 900 ta ish ko'rilgan bo'lsa, 2021-yilga kelib bu ko'rsatkich 3 381 ta ish ko'rilgan, 2022-yilning 6 oyida esa 915 tashkil qilgan³¹.

Afsuski, hakamlik sudi orqali nizolarni hal qilish imkoniyati, uning afzalliklari haqida joylarda olib borilayotgan tushuntirish ishlari yetarli emas. Ko'pgina huquqshunoslar va mutaxassislar hakamlik huquqi mavjudligini yetarli anglab yetmayapti. Jamoatchilik hakamlik sudlarining samarali faoliyati haqida zarur darajada xabardor qilinmayapti.

Shu o'rinda hakamlik sudlari haqida qisqacha ma'lumot berib o'tsak. Hakamlik sudi nodavlat sud tizimi bo'lib, uning asosiy vazifasi fuqarolar va tadbirkorlarga huquqiy yordam ko'rsatish, ularning huquq va erkinliklarini himoya qilishdan iboratdir. Hakamlik sudlari nizolarni hal qilishning muqobil usuli hisoblanadi.

Amerikalik huquqshunos olim Goldbergning fikriga ko'ra: "Nizolarni hal qilishning muqobil usullari - tomonlarning vaqtini va xarajatlarini qisqartirish, sud ishlari va xarajatlari kamaytirish, aholining adliya tizimidan qoniqish darajasini oshirish, tomonlar o'rtasidagi munosabatlarni saqlash, nizolarni hal qilish uchun zo'ravonliksiz yoki sud jarayonisiz amalga oshishiga yordam beradi"³².

Hakamlik sudlari nizolarni hal qilishda muqobil imkoniyatlarga ega ekanligi namoyon bo'lmoqda. Ularda nizolarni ko'rib chiqishdagi tezkorlik hamda kamxarjlik fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarini tanlov asosida, ixtiyoriylik tarzida hakamlik sudlariga murojaat etishini kengaytirmoqda. Bir so'z bilan aytganda, nizolashayotgan taraflar davlat sudlaridan ko'ra, hakamlik sudlarida o'z muammolarini hal etishni afzal ko'rmoqdalar³³.

Xorijiy amaliyotdan kelib chiqib oladigan bo'lsak, Singapur davlatida 2019-yilda hakamlik sudlarida jami nizolarning 95 foizi ko'rilgan. Davlat sudlarida esa nizolarning faqatgina 5 foizi ko'rilgan.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2022 yil yanvar oyidagi reestr ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda jami 255dan ortiq doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudlari ro'yxatdan o'tgan bo'lib, jumladan, O'zbekiston Hakamlik sudlari assotsiatsiyasi huzurida 160 dan, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi huzurida 15 dan ortiq va boshqa nomalar bilan qayd etilgan 80 dan ortiq doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudlari va jami 1200 ga yaqin hakamlik sudi sudyalari ro'yxatdan o'tgan.

³¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2022-yil 30-sentyabrdagi 07/14-13318-317 sonli ma'lumotnomasi

³² Voskresenskaya Vasilisa Aleksandrovna — konfliktolog, magistrant, Sankt-Peterburgskiy gosudarstvennyy universitet, Rossiyskaya Federatsiya, 199034, Sankt-Peterburg, Universitetskaya nab., 7/9; vasilisa707@mail.ru

³³ K. Baxromov, Advantage of arbitration courts over state courts, 2022.: Batafsil: <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/2982>

Ammo, hozirda hakamlik sudlari haqida eshitgan va bilgan fuqarolar yoki tadbirkorlar salmoqli. Hakamlik sudlarining ahamiyatini bilish uchun hakamlik sudlarida olib boriladigan ishlar miqdoriga nazar tashlasak barchasi oydinlashadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi va uning hududiy boshqarmalari huzurida tashkil qilingan 15 ta Hakamlik sudlari tomonidan 2007-2017-yillar mobaynida jami 10446 ta ishlar ko`rilgan bo`lib, da`vo summasi 503,5 mlrd. so'm, 54,2 mln. AQSH dollari, 195,1 ming Yevroni tashkil qilgan. 2017-yilda Hakamlik sudlari tomonidan 2465 ta ishlar ko`rilgan bo`lib, da`vo summasi 114,2 mlrd so`m, 5,4 mln AQSH dollarini tashkil qilgan. Bu 2016-yilda ko`rilgan ishlar soniga nisbatan 1204 taga ko`pdir. 2007-va 2017-yillar orasida ya`ni 10 yilda bor yo`g`i 10446 ta ish ko`rilgan bundan tashqari, bu ko`rilgan ishlar 15 ta hakamlik sudi orqali hal etilgan. Bularga solishtirish maqsadida Davlat Iqtisodiy sudlarning birinchi chorakda ko`rgan ishlariga nazar tashlaymiz. Birgina 2023-yilning birinchi choragi davomida 85.581 ta ish iqtisodiy sudlar tomonidan ko`rilgan. Bu albatta iqtisodiy sudlar ko`rgan ishlar butun respublikada ko`rilgan ishlar hisoblanadi. Lekin 10 yilda ko`rilgan ishlar bilan oy ichida ko`rilgan ishlar orasidagi tafovut juda katta³⁴.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudning 2020-yildan 2022-yilning birinchi yarim yilgacha bo'lgan statistik ma'lumotlariga ko'ra, vakolatli sudlar tomonidan hakamlik sudlarining hal qiluv qarorlarini bekor qilingan 74 ta holati qayd etilgan bo'lsa, hakamlik sudlarining hal qiluv qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqalari berishga doir ko`rilgan ishlarning soni 2 715 tani tashkil etgan³⁵.

Shu munosabat bilan, hozirda ushbu statistik ma'lumotlarni moslashtirish borasida kamchiliklarni bartaraf etish shuningdek, fuqarolar va tadbirkorlarning huquqlari hamda qonun bilan himoya qilingan manfaatlariga putur yetkazmaslik maqsadida "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi Qonunning 49-moddasidan "agar hakamlik sudining hal qiluv qarorida ijro etish muddati belgilanmagan bo'lsa, u darhol ijro etilishi kerak" degan matnning o'rniga "hakamlik muhokamasi tarafi yoki manfaatdor shaxslar hakamlik sudining hal qiluv qarorini olgan kundan e'tiboran o'ttiz kundan so'ng ijro etishga qaratilishi mumkin" degan matnni kiritish ustida tegishli tashkilotlar tomonidan ishlar olib borilmoqda.

Yuqorida qayd etib o'tilganlardan kelib chiqqan holda shuni ham aytish mumkinki, nizolarni muqobil tartibda hal qilishda hakamlik sudlarini faoliyatini takomillashtirish istiqbollardagi asosiy muammolardan biri bu albatta hakamlik sudining hal qiluv qarorlarini ijroga qaratish masalasidir. Ushbu muammoni hal qilishning eng samarali yo'li albatta ijro masalasining aynan doimiy faoliyat yurituvchi hakamlik sudi raisi vakolatiga berish ko'zda tutilmoqda.

Mazkur ilgari surilayotgan taklif O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan yangi Taraqqiyot strategiyasining 15-maqsadidagi nizolarni hal etishning muqobil usullaridan keng foydalanish uchun zarur tashkiliy-huquqiy shart-

³⁴ <https://stat.sud.uz/iib.html>

³⁵ <https://stat.sud.uz/iib.html>

sharoitlarni yaratish, yarashuv institutini qo'llash doirasini yanada kengaytirish, hakamlik sudlarini fuqarolar hamda tadbirkorlarning ishonchiga sazovor bo'ladigan nizolarni hal etuvchi samarali muqobil institutga aylantirishga asos bo'ladi. Shuningdek, 1958-yil Nyu-York konvensiyasidagi xorijiy davlatlarning arbitraj sudi qarorlarini tan olish va uni ijro etish haqidagi hamda xorijiy rivojlangan davlatlarning qonunchiligida belgilab qo'yilgan normalariga mos keladi³⁶.

Shu o'rinda, so'nggi o'n yillikda butun dunyoda elektron hujjat aylanishi darajasi eksponensial ravishda o'sib, har yili tobora ortib borayotganligi hech kimga sir emasligini ta'kidlab o'tish lozim. Bu inson hayotining barcha sohalariga taalluqlidir: shaxsiy aloqalar va biznes jarayonlaridan tortib davlat organlari faoliyatiga ham bog'liq. Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida ham nodavlat sudlari, ham davlat sudlari har yili taraflar o'rtasida vujudga kelgan nizolarni hal etish tartibida va ish yuritishda to'liq yoki qisman masofadan turib amalga oshirish uchun elektron hujjat aylanishining eng so'nggi yutuqlaridan foydalanish uchun yangi texnologik imkoniyatlarni taqdim etib kelmoqda.

Shu munosabat bilan, onlayn hakamlik muhokamasida texnologiyadan foydalanish bilan bog'liq tartib taraflar tomonidan kelishilishi va belgilanishi kerak. Bunda asosan, hakamlik sudlarida onlayn hakamlik muhokamasi, an'anaviy hakamlik muhokamasidan farqli o'laroq, taraflar va hakamlik sudi sudyasi bir-biri bilan jismoniy uchrashuvi emas, balki virtual uchrashuvi asosida amalga oshiriladi.

Shuningdek, onlayn hakamlik muhokamasida taraflar bir-biri to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'lmaydi va taraflarning shaxsiy uchrashuvi nizolarni hal qilish ehtimolini kamaytirishga olib kelishi ham mumkin. Onlayn hakamlik muhokamasida taraflarga nizo bo'yicha o'zaro munosabatlarini bildirish yoki hal qiluv qarori qabul qilingunga qadar barcha hakamlik protsesslarini videokonferensiya aloqa yoki maxsus yaratilgan elektron platformasi orqali ishtirok etishi imkonini yaratadi.

Bundan kelib chiqadiki, agar mazkur onlayn hakamlik muhokamasi o'tkaziladigan bo'lsa, taraflar virtual sud jarayonini o'tkazish bo'yicha protsessual talablarni hal qilishlari kerak, shu jumladan so'rovlar, videokonferensiya va audiokonferensiya almashish uchun tafsilotlar qayd etilgan bo'lishi kerak bo'ladi. Shunisi e'tiborga loyiqki, ba'zi hollarda taraflar va hakamlik sudi sudyalari tizimning turli qismlarida turli geografik hududlarda joylashtirilishi mumkin.

O'zbekistonda ham mustaqil, korrupsiyadan ozod, shaffof nizolarni muqobil tartibda hal etish tizimini joriy qilish, nizolarni muqobil hal qilishda uchinchi shaxslarning aralashuvini oldini olish, vakolatli sudlarning ish yuklamasi hajmini kamaytirish, hakamlik sudi ishlariga oid yagona normativ-huquqiy hujjatlar bazasini shakllantirish uchun barcha ma'lumotlarni o'zida jamlagan hakamlik sudi jarayonlarini o'tkazish bo'yicha innovatsion say-harakatlar olib borilmoqda. Xususan, 2023-yilning mart oyida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi

³⁶ Abdumurad Xakberdiyev Toshkent davlat yuridik universiteti yu.f.f.d, dotsent v.b., professional mediator, O'zbekistonda nizolarni muqobil (suddan tashqari) va sudgacha hal qilishning samarali mexanizmlari.2023.

tomonidan “nizolarni muqobil tartibda hal qilishda onlayn hakamlik sudi jarayonlariga asos solishga qaratilgan “Smart Hakam” platformasi va mobil ilovasini ishlab chiqish” mavzusida O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab tanlov e'lon qilishi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati rivojlanib borgan sayin nodavlat tuzilmalar ko'lamini ortib borishi tabiiy. Bu tendensiya hakamlik sudlari tizimi kengayib hamda yanada takomillashib borishiga ham taalluqlidir. Aholining, shu jumladan, fuqarolar va tadbirkorlarning huquqiy ongi, madaniyati, bilim va saviyasi yuksalib borishi tufayli ular o'z tanlovlarni nizolarni muqobil hal etish institutlari, shuningdek, hakamlik sudlari foydasiga qaratishi ko'p karra ortadi.

Demak, istiqbolda hakamlik sudlari fuqarolar va yuridik shaxslar o'rtasidagi mojaro va nizolarni zamonaviy usullar bilan hal etishda asosiy o'rin egallaydi. Shu bois, bugungi kundagi eng dolzarb vazifa – hakamlik sudlarida nizolarni ko'rish tartibining, muhokama jarayonlari va qaror qabul qilishning huquqiy mexanizmlarini izchil takomillashtirib borishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boboqulovna I.F., Orif o'g'li R.B. Mediatsiya – oilaviy nizolarni hal etishning muqobil usuli sifatida//Scientific aspects and trends in the field of scientific researches. – 2022. – T.

2. M.M.Mamasiddiqov - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti bo'lim boshlig'i. S.I.Xasanov - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti yetakchi ilmiy xodimi “Mediatsiya to'g'risidagi qonunni qabul qilish zarurati va ahamiyati” maqolasi. Toshkent-2017

3. K.Baxromov, Advantages of arbitration courts over state courts, 2022.: Batafsil: <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/2982>

4. Jarvin, S., Objections to Jurisdictions, in Newman L. and Hill, R., (eds.), The Leading Arbitrators' Guide to International Arbitration, (2nd ed., Juris Publishing 2008),

5. Верховская Варвара Александровна - кандидат политических наук, ассистент, Санкт-Петербургский государственный университет, Российская Федерация, 199034, г. Санкт-Петербург, Университетская наб., 7/9; Varia17@mail.ru

6. Воскресенская Василиса Александровна - конфликтолог, магистр, Санкт-Петербургский государственный университет, Российская Федерация, 199034, г. Санкт-Петербург, Университетская наб., 7/9; vasilisa707@mail.ru

7. Альтернативные механизмы разрешения споров» Составитель: Х.Ёдгоров, заместитель Председателя Верховного суда Республики Узбекистан – председатель Судебной коллегии по гражданским делам. Ташкент – 2017

8. Альтернативное разрешение Споров По материалам Юлия Шешуряка, ligazakon.ua [Электронный ресурс] - Режим доступа: <http://vestnikao.com.ua/publ/3-1-0-147>, бесплатно. - Загл. с экрана. - Написать. рус.